SHERDOR

Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities



Volume 1 | Issue 2 | 2026

ISSN 3093-9372

Tashkent - 2026

Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities

Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities (CAJSSH) is officially registered as an online mass media outlet by the Inspectorate for Control in the Sphere of Informatization and Telecommunications under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, pursuant to Registration Certificate No. 1668282. The journal is published under the title "Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities" and is authorized to publish scholarly content in Uzbek, English, and Russian.

Editor-in-Chief
Ismoyilov Ubaydulla

Scientific Editor
Abduganiev Ahrorjon

Honorary Editors

Acad. Ahmadali Askarov
National University of Uzbekistan for Pedagogy, Uzbekistan

Prof. Rustam Suleymanov
National University of Uzbekistan, Uzbekistan

Editorial Board:

Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Feruza Shamukaramova (Prof. Dr.)
Nigora Egamberdieva (Prof. Dr.)
Azimkhoja Otakhojaev (Prof. Dr.)
Zhenishbek Duysheev (Prof. Dr.)
Malgorzata Anna Kot (Prof. Dr.)
Osman Karatay (Prof. Dr.)
Behzod Isabekov (Dr.)
Dilshod Tukhtasinov (Dr.)
Dilafruz Karimova (Dr.)

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: sherdorjournal.org
E-mail: editor@sherdorjournal.org

Contents

Xakimova Mahruya Abdulhayovna 5
A New Worldview in Youth Activism in Uzbekistan

Tukhtasinov Dilshod 8
Typological and Comparative Analysis of Some Vessels of the Open and Closed Type Found in the Lower Layer of the Uchtepa-2 Archaeological Monument

Saydullayev Chingiz Xamidullayevich 13
The Impact of Corporate Social Responsibility Strategies on Corporate Image and Sustainable Development

Rustamova Gulmira 15
The Impact of Women′s Participation in the Labor Market on Family Relationships

Pulatov Otabek 20
The Study of Craftsmanship Treatises During the Independence Period

Bekjon Kurbonov 23
State religion relations in Uzbekistan in the post independence period

Quvondiqov Mukhriddin 27
Planning the Daily Training Process for Para Judo Athletes in Training Groups

Merjen Seydullayeva 30
Digital History: Opportunities and Prospects of Modern Information Technologies in the Study of the History of Lebap Province

Safarov Abdulbosid 33
The Role of Amir Timur′s Spiritual Mentors in Establishing and Governing a Just State: The Case of Mir Sayyid Baraka

Maksadov Allanur 36
The Jadid Movement and the National Awakening in Turkestan (Late 19th – Early 20th Centuries)

Rozay Rustemova 40
The Development of Science in Central Asia under the Influence of Islamic Civilization

Samadov Sanjar 47
The Place of Khayriddin Sultan′s Literary Works in the Uzbek Literary Process

Jorayev Yhlas 49
Sogdian Merchants and the Silk Road: Central Asia′s Role in East–West Connections (2nd Century BCE – 8th Century CE)

The Impact of Women's Participation in the Labor Market on Family Relationships

Rustamova Gulmira
Office Manager and Master's Student, Department of Archaeology and Ethnology
Faculty of History, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
rustamovag2811@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.68358/p28rcj91

Abstract. *This article analyzes the impact of women's participation in the labor market on family relationships from socio-economic and sociological perspectives. Women's employment can contribute to improving family economic well-being, strengthening women's economic independence, and enhancing their position in family decision-making processes. At the same time, it may create challenges related to balancing work and family responsibilities. The scientific literature indicates that the relationship between women's employment and marital stability is not straightforward, as it is influenced by the division of labor within the family, equality between spouses, social support, the number of children, working hours, and institutional conditions.*

Keywords: *Women's employment, labor market, economic activity, gender impact, unpaid labor, wages, family relations, conflicts and divorce*

Ayollar mehnat bozorida ishtirokining oilaviy munosabatlarga ta'siri

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokining oilaviy munosabatlarga ta'siri ijtimoiy-iqtisodiy va sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ayollarning bandligi oilaning iqtisodiy farovonligini oshirish, ayollarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish va oiladagi qarorlar qabul qilish jarayonida ularning mavqeini mustahkamlash bilan bir qatorda, ish va oila majburiyatlarini uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ayollar bandligi va nikoh barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik bir yoqlama emasligi, bunda oiladagi mehnat taqsimoti, er-xotin o'rtasidagi tenglik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, farzandlar soni, ish vaqtining davomiyligi va institutsional sharoitlar muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Ayollar bandliki, mehnat bozori, iqtisodiy faollik, gender ta'siri, haq to'lanmaydigan mehnat, oylik maosh, oilaviy munosabatlar, ziddiyot va ajrimlar*

Kirish. So'nggi o'n yillik davomida O'zbekistonda olib borilayotgan jadal islohotlar ayollarning ta'lim olishi, kasbiy faoliyat yuritishi va mehnat bozorida ishtirok etishini sezilarli darajada oshirdi, bu esa o'z navbatida oilaning an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy modelining sezilarli darajada o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ilgarilari oilada asosiy iqtisodiy ta'minotchi — erkak, ayol esa uy-ro'zg'or va farzand tarbiyasi uchun mas'ul shaxs sifatida qaralishi keng tarqalgan bo'lsa, zamonaviy oilalarda ikki tomonlama daromad modelining ahamiyati ortishi natijasida oilada yumushlarning teng taqsimlanishi kerakligi haqidagi qarashlar keng tarqalmoqda.

Ayollarning mehnat bozoriga kirib kelishi faqat iqtisodiy jarayon emas, balki oiladagi rollar, mas'uliyatlar va hokimiyat munosabatlarining qayta taqsimlanishiga olib keluvchi ijtimoiy hodisaga aylanib bormoqda. Shu sababli ayollar bandligining oilaga ta'sirini faqat "ijobiy" yoki "salbiy" deb baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Ta'sirning yo'nalishi oilaning iqtisodiy holati, er-xotin o'rtasidagi mehnat taqsimoti, ish sharoitlari, farzandlar mavjudligi va oilaga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat kabi omillarga bog'liq bo'lib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ayollarni mehnat bozoriga olib kirish va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir nechta qaror va farmonlar chiqarilmoqda. Shular jumlasiga 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonunini kiritish mumkin. Ushbu qonun xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, mehnat munosabatlarida ishga yollash, teng mehnat uchun teng ish haqi, xizmatda ko'tarilish va malaka oshirishda teng imkoniyatlarni nazarda tutadi.

Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 15 yoshdan yuqori aholining mehnat kuchida ishtirok etish darajasi ayollar uchun 41,2 foiz, erkaklar uchun 73,9 foizni tashkil etgan[2]. Milliy statistika ma'lumotlarida jami bandlar tarkibida ayollar ulushi 2025-yilda 43,1 foizga yetgani qayd etiladi. Biroq ayollarning iqtisodiy ishtirokiga uy xo'jaligi va parvarish majburiyatlari, gender stereotiplari, ish o'rinlarining sifati, ish haqi tafovutlari va parvarish infratuzilmasining mavjudligi ta'sir

ko‘rsatishda davom etmoqda.

Asosiy qism.

Ayollar bandligi va oilaviy munosabatlarning nazariy asoslari

Ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki bilan oilaviy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy, sotsial, antropologik, etnologik va gender tadqiqotlaridagi turli qarashlar asosida shakllangan. Ularni quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

Iqtisodiy qarashlar asosida shakllangan “Inson kapitali nazariyasi”da ayolning ta’limi, kasbiy malakasi va ish tajribasi uning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirishga yordam berishi, bu esa, o‘z navbatida, oila daromadining ko‘payishi va uy xo‘jaligining iqtisodiy barqarorligiga ta’sir qilishi mumkinligi tadqiq etiladi. Jahon bankining “Gender Data Portal; ILO Modelled Estimates database” bazasidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra 2025-yilda O‘zbekistonda ayollar va erkaklarning mehnat bozorida ishtiroki ayollar uchun 41,2 foizni, erkaklar uchun esa 73,9 foizni tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki 2016-yildagiga nisbatan 4 foizga pasayganini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida oila budjetini shakllantirish va barqarorlashtirishga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

An’anaviy qarashlar asosida shakllangan ushbu “Uy xo‘jaligi iqtisodiyoti nazariyasi”da oilada vaqt va resurslar qanday taqsimlanishi muhimligi ilgari suriladi, sababi ayolning ish bilan band bo‘lishi uy yumushlari va bola parvarishiga ajratiladigan vaqtni qayta taqsimlashni talab qiladi. Ushbu nazariyada ayolning bandligi er-xotin o‘rtasidagi vazifalar taqsimotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi, ayolning uyda o‘tirishi va oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilishi kerakligi haqidagi an’anaviy qarashlarning o‘zgarishi hamda uning oqibatlari haqida fikr yuritiladi.

Gender tadqiqotlari, sotsiologik kuzatuvlar va ayollar harakatlarining jadallashuvi asosida shakllangan “Gender rollari nazariyasi” jamiyatda ayol va erkakka nisbatan shakllangan an’anaviy qarashlar mehnat va oilaviy majburiyatlarning taqsimlanishiga ta’sir qiladi degan fikrlarni ilgari suradi. Bu nazariya esa o‘z navbatida, “Ish–oila” konflikti nazariyasiga ulanib ketadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra mehnat va oilaviy rollarning bir vaqtda bajarilishi vaqt tanqisligi, stress va majburiyatlarning to‘qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatda ish sharoiti, ish vaqti, bolalarni parvarish qilish imkoniyatlari va oiladagi vazifalar taqsimoti muhim ahamiyat kasb etadi. Ayolning iqtisodiy faolligi esa o‘z navbatida an’anaviy rollarning o‘zgarishiga olib kelishi yoki aksincha, oiladagi ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Natijada, zamonaviy jamiyatlarda ajrimlar sonining oshishiga sabab bo‘layotgan omillardan biri sifatida ayollarning moliyaviy mustaqilligi yoki ularning erkaklarga nisbatan ko‘proq maosh olayotgani ko‘rsatilmoqda. Jahon bankining tadqiqotlari va o‘tkazgan so‘rovnomalariga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining qariyb 34 foizi “oilada tinchlikni saqlash uchun ayollar erkaklarga nisbatan kamroq maosh olishlari kerak”, deb hisoblaydi, shuningdek aholining 77 foizi qishloq va shahar joylarida deyarli bir xil ravishda “Uy vazifalariga ko‘proq vaqt ajratish uchun ayollar erkaklarga nisbatan kasbiy ishiga kamroq vaqt sarflashlari kerak”, deb hisoblaydi. UNDP ma’lumotlarida yosh bolalarni parvarish qilishga ayollar haftasiga o‘rtacha 46,92 soat, erkaklar esa 16,48 soat sarflashi ko‘rsatilgan. Ushbu nazariyada xorijlik tadqiqotchilar Hochschild va Machung tomonidan ilgari surilgan “ikkinchi smena” tushunchasi haq to‘lanmaydigan mehnatni yanada tushuntirib beradi, bu esa bozor mehnatidan so‘ng ayol uyga qaytib, ovqat tayyorlash, tozalash va bola parvarishi kabi ishlarni bajarishda davom etishini va oilada erkakdan ikki baravar ko‘proq ishlashini ko‘rsatib o‘tadi. Bu esa ayollardagi norozilik, kayfiyat yomonligi, munosabatlardan qoniqmaslik hissining shakllanishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida oilaviy ziddiyatlar va janjallarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Keyingi nazariyalar ayollar va erkaklarning teng huquqliligi va mehnat bozorida ishtirokining ijobiy tomonlarini, shuningdek, zamonaviy davrda ilgari surilayotgan o‘zaro hurmat, oila budjetini boshqarishda teng ishtirok, asosiy qarorlar qabul qilishda so‘zini mustaqil ayta olish va haq to‘lanmaydigan mehnat va uy yumushlarining teng taqsimlanishi natijasida yuzaga kelayotgan o‘zaro munosabatlarni qamrab oladi. Ularga misol sifatida “Ijtimoiy almashinuv” nazariyasi hamda “Ish–oila” uyg‘unligi nazariyalarini keltirishimiz mumkin. Nazariyalarda oiladagi munosabatlar tomonlarning iqtisodiy va ijtimoiy resurslariga ham bog‘liqligi, ayolning daromad topishi uning oiladagi iqtisodiy mustaqilligini va qarorlar qabul qilishdagi mavqeini oshirishi mumkinligi hamda mehnat faoliyati har doim ham oilaga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Moslashuvchan ish grafigi, yetarli daromad, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va uy vazifalarining tengroq taqsimlanishi ish va oilaviy hayotning bir-birini to‘ldirishiga yordam berishi mumkin. Ularda oiladagi iqtisodiy samaradorlik er-xotinning turli vazifalarga ixtisoslashuvi bilan izohlanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zaro tushunish, qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro hurmatning ayol va erkak o‘rtasida shakllanishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, kuzatishlar natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, yoshlar orasida oilaviy budjetni shakllantirishda o‘zaro hurmat va vazifalarning

teng taqsimlanishi haqidagi fikrlar ko‘payib bormoqda.

Demak, ayollar bandligi va oilaviy barqarorlik o‘rtasidagi munosabatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilish metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Ayollar bandligining oilaga ijobiy ta’sirlari

Birinchidan, ayolning daromad olishi oilaviy iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Ikki tomonlama daromad manbai oilaning kundalik xarajatlarini qoplash, farzandlar ta’limiga investitsiya qilish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va kutilmagan iqtisodiy vaziyatlarga moslashish imkoniyatini oshiradi, shuningdek so‘nggi yillarda kuchayib borayotgan oilaviy dam olish va hordiq chiqarish holatlari uchun qo‘shimcha budjet ajratish imkoniyatlarini ham yaxshilaydi.

Ikkinchidan, bandlik ayolning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytiradi. Bu oiladagi qarorlarni qabul qilish jarayonida ayolning iqtisodiy resurslarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bunda ayolning oilaviy budjet, farzandlarning ta’limi, katta xarajatlar va boshqa muhim masalalar bo‘yicha qarorlardagi ishtiroki ortishi ehtimoli kuchayib, unga iqtisodiy-ijtimoiy mavqega ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida an’anaviy qarashlarning eskirishiga olib kelib, yosh avlodlar orasida oilaviy budjet boshqaruvida har ikki gender vakilining teng ishtirokini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida erkaklarning zimmasidagi “non topish” vazifasini yengillashtirib, ularning o‘z qiziqishlari va sog‘lig‘i uchun vaqt ajratishi ehtimolini oshiradi.

Uchinchidan, kasbiy faoliyat ayolning ijtimoiy kapitali va shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Mehnat jamoasi, kasbiy aloqalar, yangi bilim va ko‘nikmalar ayolning o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda jamiyatdagi ijtimoiy faolligini kuchaytirishi mumkin.

Biroq bunday ijobiy natijalar avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Ular mehnat sharoitlari, daromad miqdori, ish vaqtining moslashuvchanligi va oiladagi vazifalarning qanday taqsimlanganiga bog‘liq.

Ish va oila majburiyatlari to‘qnashuvi

Ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini o‘rganuvchi tadqiqotlarda eng muhim masalalardan biri — “work-family conflict”, ya’ni ish va oilaviy majburiyatlar o‘rtasidagi ziddiyatdir.

Ayol bir vaqtning o‘zida xodim, turmush o‘rtoq va ona rollarini bajarishi mumkin. Agar ish vaqti uzoq bo‘lsa yoki ish joyi uy va maktab/bog‘chadan uzoqda joylashgan bo‘lsa, oilaga ajratiladigan vaqt qisqaradi. Bunday vaziyatda ayolning jismoniy va ruhiy resurslari bir nechta yo‘nalishga bo‘linadi. Bu esa ayolga jismonan va ruhan bosim bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Xorijiy tadqiqotchilar Glass va Estesning oilaga moslashuvchan ish joylari haqidagi sharhiga ko‘ra, ish va oilaviy majburiyatlarning mos kelmasligi nafaqat xodimning mehnat faoliyatiga, balki oilaning faoliyat ko‘rsatishiga ham ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli ish joyidagi oilaga mos siyosatlar oilaviy farovonlik uchun muhim institutsional omil hisoblanadi.

Shuningdek, 274 nafar turmush qurgan va to‘liq ish kunida ishlaydigan ayol ishtirokidagi tadqiqotda ish va oiladagi qoniqish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va, ayniqsa, turmush o‘rtog‘ining ko‘magi ayollarning ish-oila rollari muvozanatini his qilishlari bilan ijobiy bog‘liqligi aniqlangan.

Bu natijalar oilaviy munosabatlarga ayolning ishlashi emas, balki ishlash sharoiti va oilaviy mas’uliyatlarning qanday taqsimlanishi katta ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Uy mehnatining taqsimlanishi va er-xotin munosabatlari

Ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishi bilan bog‘liq asosiy muammolardan biri — haq to‘lanadigan mehnatga qo‘shimcha ravishda uy-ro‘zg‘or va parvarish ishlarining katta qismini bajarishda davom etishidir. Bu holat ilmiy adabiyotlarda “ikki karra yuklama” yoki “double burden” tushunchasi orqali ifodalanadi. Agar ayol ish joyida to‘liq ish kuni ishlasa-yu, uyga kelgach ovqat tayyorlash, tozalash, bolalarni parvarish qilish va boshqa uy ishlarining asosiy qismini ham bajarsa, uning umumiy mehnat yuklamasi sezilarli darajada oshadi.

Er-xotinlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda uy mehnatining taqsimlanishi va uning adolatliligi oilaviy ziddiyatlar bilan bog‘liqligi o‘rganilmoqda. Tadqiqotda uy mehnati masalasi xotinlarning oilaviy ziddiyatni idrok etishida muhim omillardan biri ekanligi ko‘rsatilgan. Shunday qilib, ayolning ish bilan band bo‘lishi oiladagi vazifalar avtomatik tarzda teng taqsimlanadi degani emas. Aksincha, agar pullik va bepul mehnat o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanmasa, ish bilan band ayol zimmasidagi umumiy yuklama ortishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida ayolning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘iga ta’sir o‘tkazadi va samaradorlikning tushishiga olib keladi.

Farzand tarbiyasi va parvarish masalasi

Ayollar bandligi va oilaviy munosabatlar masalasida farzandlar tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Farzandning yoshi, soni va parvarishga bo‘lgan ehtiyoji ayolning mehnat bozoridagi ishtirokiga ta’sir qiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha 748 million kishi parvarish majburiyatlari sababli mehnat kuchida bo‘lmagan; ularning 708 millionini ayollar tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich parvarish majburiyatlarining mehnat

bozoridagi gender tafovutlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

ILO tadqiqotlari, shuningdek, kichik yoshdagi farzandlari bo‘lgan ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki odatda pastroq ekanini va bunga bolalarni parvarish qilish majburiyatlarining nomutanosib ravishda ayollar zimmasiga tushishi sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Natijada, oiladagi farzand parvarishi masalasi faqat ayolning shaxsiy mas’uliyati sifatida ko‘rilmaydi, balki uning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini cheklovchi omil sifatida ko‘rilishi mumkin. Aksincha, ota-onalar o‘rtasida parvarish vazifalarini taqsimlash, bolalar bog‘chalari va boshqa parvarish xizmatlarining mavjudligi ayollarning bandligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida masalaning dolzarbligi

O‘zbekiston jamiyatida ham ayollarning iqtisodiy faolligi va oiladagi an’anaviy rollar o‘rtasidagi munosabat tobora muhim ijtimoiy masalaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, shaharlashuv, ta’lim darajasining oshishi, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalarda yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi ayollarning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Biroq ayollarning iqtisodiy faolligi bilan bir qatorda uy va parvarish mehnatining taqsimlanishi masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. ILOning O‘zbekiston bo‘yicha 2025-yildagi materialida ayollar haq to‘lanmaydigan parvarish mehnatining to‘rtdan uch qismidan ko‘prog‘ini bajarishi qayd etilgan. Ushbu holat ayollarning iqtisodiy faolligi va mehnat bozoridagi imkoniyatlarini cheklovchi omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda ayollar bandligini oshirishda faqat yangi ish o‘rinlari yaratish bilan cheklanib qolmasdan, oilaviy majburiyatlarni bajarish imkonini beruvchi mehnat sharoitlari, maktabgacha ta’lim va parvarish xizmatlari, moslashuvchan ish vaqti hamda ota-onalar uchun qulay mehnat siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ayollar bandligi va oilaviy munosabatlar o‘rtasidagi asosiy bog‘liqliklar

Yuqoridagi nazariyalar, tadqiqot va kuzatishlar asosida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki oilaviy munosabatlarga bir nechta asosiy mexanizmlar orqali ta’sir qilishini ko‘rsatish mumkin:

Omil	**Oilaviy munosabatlarga ehtimoliy ta’siri**
Ayol daromadining oshishi	Oilaning iqtisodiy imkoniyatlari kengayishi
Iqtisodiy mustaqillik|	Qaror qabul qilishdagi ishtirokning ortishi
Uzoq ish vaqti	Oila uchun vaqtning qisqarishi
Uy mehnatining teng taqsimlanmasligi	Ziddiyat va norozilikning kuchayishi
Turmush o‘rtog‘i ko‘magi	Ish-oila muvozanatining yaxshilanishi
Bolalarni parvarish xizmatlari	Ayolning mehnat bozorida qolish imkoniyatining ortishi
Moslashuvchan ish vaqti|	Oilaviy va kasbiy rollarni uyg‘unlashtirishning osonlashishi
Ishdagi yuqori stress	Oilaviy muloqot va munosabatlarga salbiy ta’sir ehtimoli
Er-xotin o‘rtasidagi teng mehnat taqsimoti	Oilaviy hamkorlikning kuchayishi

Bu jadvaldan ko‘rinadiki, ayollarning bandligi oilaviy munosabatlarga bevosita bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Ta’sirning yo‘nalishi oiladagi resurslar va majburiyatlarning qanday taqsimlanishiga bog‘liq.

Xulosa. Ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki zamonaviy oilaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini o‘zgartirayotgan muhim omillardan biridir. Ilmiy tadqiqotlar ayollar bandligini oilaviy munosabatlarga faqat salbiy ta’sir qiluvchi hodisa sifatida talqin qilish uchun yetarli asos yo‘qligini ko‘rsatadi. Aksincha, ayolning mehnat qilishi oilaning daromadini oshirishi, iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytirishi va ayolning qaror qabul qilishdagi imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, ish va oilaviy majburiyatlarning uyg‘unlashtirilmasligi, uy mehnatining noteng taqsimlanishi va parvarish majburiyatlarining asosan ayollar zimmasida qolishi oilaviy ziddiyatlar va ortiqcha mehnat yuklamasini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun muammo ayollarning ishlashi yoki ishlamasligida emas, balki mehnat va oilaviy majburiyatlarning qanday tashkil etilishida namoyon bo‘ladi.

Oila barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan er-xotin o‘rtasida uy mehnati va farzand parvarishini adolatli taqsimlash, ish beruvchilar tomonidan oilaga moslashuvchan mehnat sharoitlarini yaratish, sifatli va hamyonbop bolalar parvarishi xizmatlarini rivojlantirish hamda erkaklarning parvarish mehnatidagi ishtirokini rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida ayollar bandligini oshirish siyosati oilaviy siyosat bilan uzviy bog‘liq holda olib borilgandagina barqaror natijaga erishish mumkin. Bunda asosiy e’tibor

ayolning “ish yoki oila” o‘rtasida birini tanlashiga emas, balki ish va oilani uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida: O‘RQ-562-son Qonun, 02.09.2019.
2. World Bank. Uzbekistan: Gender Data Portal. Washington, DC: World Bank, 2026. ILO Modelled Estimates database ma’lumotlari asosida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Share of women in total employed. SIAT statistik ma’lumotlar bazasi. 2026-yil 21-iyul holatidagi yangilanish.
4. United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. Report on Improving the Care System in the Republic of Uzbekistan. Tashkent: UNDP, 2024.
5. Becker, G. S. A Treatise on the Family. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1981.
6. Hochschild, A. R., Machung, A. The Second Shift: Working Families and the Revolution at Home. New York: Viking, 1989.
7. Goldin, C. Understanding the Gender Gap: An Economic History of American Women. New York: Oxford University Press, 1990.